

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

POETIK NUTQDA XIAZM USULI

Mamaziyayev Oblaberdi Xudoberganovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Qo‘qon Universiteti

Jahon tillari kafedrası katta o‘qituvchisi

e-mail: omamaziyayev77@gmail.com

Axmadjonov Avazbek

Qo‘qon Universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi

Qo‘qon Davlat Pedagogika Instituti

tayanch doktoranti

e-mail: aaxmadjonov77@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada xiazm usulining poetik nutqdagi o‘rni, uning stilistik va sintaktik jihatlari har tomonlama tahlil qilinadi. Xiazm – qo‘shma gaplarni shakllantiruvchi sintaktik-stilistik vosita bo‘lib, unda gap tarkibiy qismlarining joylashuvi teskari tartibda bo‘lishi talab etiladi. Bu usul poetik nutqning ta’sirchanligi va ifoda vositalarining estetik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Xiazm usuli, asosan, badiiy adabiyot va jonli nutq uslubida uchraydi hamda stilistik takrorning murakkab shakllaridan biri sifatida nutqning ohangdorligi va ma’nodorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqotda xiazm usulining turli ko‘rinishlari misollar asosida ko‘rib chiqilib, uning leksik va sintaktik variantlari o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada xiazm usulining tilshunoslikdagi tadqiqotlari, uning poetik nutqdagi samaradorligi va stilistik funksiyasi o‘rganilib, badiiy matn yaratishda tutgan o‘rni yoritiladi. Xiazmning xalq og‘zaki ijodi poetikasiga xosligi, uning tinglovchi va o‘quvchi e’tiborini jalb etishdagi roli ham alohida ta’kidlanadi. Maqolada xiazm usulining tarixiy asoslari, lingvopoetik tavsifi va qo‘llanilish xususiyatlari atroflicha yoritilib, u stilistik vosita sifatida qanday ishlashi aniq misollar asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: xiazm, poetik nutq, stilistik uslub, sintaktik tahlil, antiteza, lingvopoetika, badiiy adabiyot, uslubiy figuralar, struktur-semantik o‘zgarish, tilshunoslik.

Annotation This article comprehensively analyzes the role of chiasmus in poetic speech, focusing on its stylistic and syntactic aspects. Chiasmus is a syntactic-stylistic device that structures compound sentences in an inverted order. This technique enhances the expressiveness of poetic speech and increases the aesthetic appeal of linguistic means. Chiasmus is mainly found in literary works and spoken language, serving as one of the complex forms of stylistic repetition that contributes to the rhythm and meaning of speech. The study examines different

forms of chiasmus with illustrative examples, analyzing the differences between its lexical and syntactic variations. Furthermore, the article explores linguistic research on chiasmus, its effectiveness in poetic discourse, and its stylistic function, shedding light on its role in artistic text creation. Special attention is given to chiasmus as an element of oral folk poetry and its ability to capture the attention of listeners and readers. The paper thoroughly discusses the historical foundations, linguopoetic characteristics, and application features of chiasmus, explaining its function as a stylistic device with concrete examples.

Keywords: chiasmus, poetic speech, stylistic technique, syntactic analysis, antithesis, linguopoetics, literary works, stylistic figures, structural-semantic transformation, linguistics.

Аннотация В данной статье всесторонне анализируется роль хиазма в поэтической речи, а также его стилистические и синтаксические аспекты. Хиазм представляет собой синтаксико-стилистический прием, при котором составные части сложного предложения располагаются в инвертированном порядке. Этот метод способствует усилению выразительности поэтической речи и повышает эстетическую привлекательность языковых средств. Хиазм преимущественно встречается в художественной литературе и устной речи, являясь одной из сложных форм стилистического повторения, которое способствует ритмике и смысловой насыщенности текста. В исследовании рассматриваются различные формы хиазма с примерами, анализируются различия между его лексическими и синтаксическими вариантами. Кроме того, в статье изучаются лингвистические исследования хиазма, его эффективность в поэтическом дискурсе и стилистическая функция, а также его роль в создании художественного текста. Особое внимание уделяется хиазму как элементу поэтики народного устного творчества и его способности привлекать внимание слушателей и читателей. В работе подробно рассматриваются исторические основы, лингвопоэтические характеристики и особенности применения хиазма, объясняется его функционирование как стилистического приема на конкретных примерах.

Ключевые слова: хиазм, поэтическая речь, стилистический прием, синтаксический анализ, антитеза, лингвопоэтика, художественная литература, стилистические фигуры, структурно-семантическая трансформация, лингвистика.

KIRISH

O‘zbek tilshunosligida xiazm tushunchasi bir necha yillardan beri keng qo‘llanib kelinadi va poetik nutq jarayonida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan birliklardan hisoblanadi. Xiazm faqat qo‘shma gapni shakllantiruvchi sintaktik-stilistik vosita bo‘lib, unda qo‘shma gap birinchi komponentdagu gap bo‘laklarining o‘rni (tartibi) ikkinchi komponent bo‘laklari joylashuviga butunlay teskari holatda bo‘lishi talab etiladi. Xiazm nutq ko‘rinishi komponentlarining nomutanosibligini aks ettiruvchi uslubiy-pragmatik vosita hisoblanadi.

Xiazm stilistik takrorning alohida bir murakkab ko‘rinishi bo‘lib, u nutqning ohangdor, jarangdor, shu bilan birga, jozibador bo‘lishini ta‘minlaydi, bir so‘z bilan aytganda, nutq ko‘rinishining sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Misollar tahlili shuni isbotlaydiki, xiazm, ko‘proq jonli nutq uslubiga xos poetik figuradir.

Har bir badiiy asar o‘zining uslubiy jihatdan qay darajada mukammal ishlanganligiga qarab qiziqarli, ta‘sirchan bo‘ladi, kitobxonda alohida taassurot uyg‘otadi. Badiiy nutq yaratishda asar muallifi oldiga o‘ta murakkab va keng qamrovli talablar qo‘yiladi. Nutq ko‘rinishining uslubiy jihatdan puxta, pishiq ishlanganligi, o‘quvchi yoki tinglovchiga yaxshi ta‘sir qilishi, unga tez va oson tushunarli bo‘lishi lozimligi ham ana shu talabalardan biridir. Nutqning ta‘sirli, jozibali va jarangdorligini ta‘minlovchi vositalar poetik figuralar hisoblanadi [1].

Badiiy asar tilini his qilish, mazmunan yengil, oson tushunishda, uning estetik ta‘siridan oziqlanishda poetik figuralarning alohida o‘rni bor.

Yuqorida ta‘kidlanganimizdek, poetik nutqning asosiy belgilaridan biri unda tasvir vositalarining – uslubiy figuralarning keng qo‘llanishidir.

Poetik figuralar orasida shundaylari ham borki, bularda ikki nutqiy birlik (ular xoh so‘z birikmasi, xoh gap va hokazo bo‘lsin) o‘zaro qiyoslangan holda, yonma-yon qo‘yilib, biri ikkinchisi bilan ma‘lum bir qonuniyat asosida aloqaga kirishadi. Bunday uslubiy figuralarga antiteza va xiazm usullari kiradi [2].

Nutq ko‘rinishida gap bo‘laklarining teskari funksiyada takroran qo‘llanishi usuli ham mavjud bo‘lib, bu vosita poetik nutqning asosiy uslubiy belgilardan bir hisoblanadi. Bu hodisa uslubshunoslikda “xiazm” atamasi ostida izohlanadi [3]. Bunday holat, ko‘proq, xalq og‘zaki ijodi poetikasiga xos xususiyat sanalib, xiazm nutq orqali bayon qilinayotgan fikrga bo‘lgan tinglovchining diqqatini tortadi va qiziqishini yanada kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xiazm usuli haqida e‘tiborga loyiq dastlabki fikrni tilshunos olim I.Miryazevning lingvopoetika masalalariga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida uchratish mumkin. Tadqiqotchi xiazmik konstruksiyalarga alohida bir paragraph ajratib, bunda ushbu vositaga, asosan, struktur-semantik jihatdan yondashadi. Ushbu ishda xiazm chap tomon qismidagi so‘zlar teskari tartibda joylashtirilgan binar struktura sifatida tushunilgan [4].

I.Mirzayevning tilga olingan tadqiqot ishi o‘zbek tilshunosligida xiazmik konstruksiyalar (XK) haqida dastlabki fikrlar aytilganligi bois e‘tiborga loyiq. Lekin bu bilan uslubiy vosita sifatida xiazm usuli yetarli o‘rganilgan degan xulosaga kelib bo‘lmaydi [4]. Bu vositaning o‘ta murakkab va keng qamrovli ekanligi sababli, uni kengroq masshtabda chuqurroq o‘rganish va tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Poetik nutqda xiazm usulining turli ko‘rinishlarini o‘rganish mumkin. Tadqiqotchi e‘tiborini, asosan, xiazmik konstruksiya tarzida shakllangan nutq ko‘rinishlariga qaratgan. Bunday holatlarda yonma-yon qo‘llangan ikki qo‘shni gap bo‘lagining nafaqat o‘rni, balki

leksik materiali ham o‘zgargan bo‘ladi. Quyida taniqli shoir Rauf Parfi ijodidan namuna keltirilib, unda XK ning o‘rni izohlanadi:

O‘zgarar tabiat, dunyo o‘zgarar.

Ushbu misolda XK asosida shakllangan nutqiy ifodani quyidagicha qolipda ko‘rishimiz mumkin:

Kesim+ega, ega+kesim.

Bu ko‘rinishda har ikki gapda ega vazifasini bajaruvchi so‘zlar leksik materiali jihatidan bir xil emas.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi nutq parchasida yuzaga chiqqan holatlarni sof xiazm usuli sifatida baholab bo‘lmaydi. Bu fikrni isbotlash uchun, avvalo, xiazm usuliga berilgan quyidagi ta’rifni keltirish joiz.

Xiazm (grekcha chiasmus) ikki yonma-yon gapda (yoki so‘z birikmasida) sintaktik parallelizm tarzida qo‘llanuvchi, ikkinchi gapda esa birinchi gapni tashkil etuvchi qismlarning teskari joylashuvi yoki grekcha “X” (xi) xarfi shaklida namoyon bo‘luvchi uslubiy figuradir. Boshqacha aytganda, xiazm, bu bir xil sintaktik qolipdagi qismlarning (gap bo‘laklarining) ikki qo‘shni gapda “krest” shaklidagi joylashuvidir [2].

E’tibor berib o‘tilsa, xiazm usuliga berilgan ushbu ta’rifning to‘liq emasligi, unda bu uslubiy figuraning barcha qirralari qamrab olinmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ta’rifda, bu usulning shakily tomoniga e’tibor berilgan. Bu vositaning komponentlaridan biri sifatida keluvchi ikkinchi gapda birinchi gapni tashkil etuvchi qismlarning teskari tartibda joylashuvchi talab etilar ekan, bunday aks tartib qismlarning qaysi jihatlarida yuzaga chiqishi lozim: gap bo‘laklarining o‘rnida yoki sintaktik vazifasida yoki ular ifodalagan ma’nolardami, degan savol tug‘iladi. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash lozimki, yuqoridagi ta’rifdan ushbu savollarga javob topish qiyinroq.

Ushbu savollar tug‘ilishining o‘zi ham xiazm usuli borasida hali davomiy ilmiy izlanishlar olib borilishi zarurligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

NATIJALAR

Xiazm bir sintaktik ifodaning shakllanishidan hosil bo‘ladigan uslubiy vositalar guruhiga kiradi, lekin bu ko‘rinishning keying qismida so‘z yoki so‘z birikmalarining tartibi teskari holatda bo‘ladi.

Bir-biri bilan ketma-ket kelayotgan gap bo‘laklarining shakli teskari parallel konstruksiya sifatida tasvirlanishi, gaplardan birining so‘z tartibi ikkinchisiga qiyoslangan holda, aks tartibda joylashtirilishi mumkin. Ushbu fikrni isbotlash uchun quyidagi misollardan foydalaniladi:

Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq. (maqol)

Ushbu keltirilgan maqol ikki soda gapni o‘z ichiga olgan qo‘shma gapdan iborat. Aniqroq aytganda, ergash gapli qo‘shma gap ko‘rinishi hisoblanadi. Bu qo‘shma gapdagi bosh va ergash gap strukturasi elementlari gap bo‘laklarining o‘rni – tartibi quyidagicha:

1. Ergash gapda: “*Zamon senga boqmasa*” ...

zamon – ega, senga – to‘ldiruvchi, boqmasa – kesim;

2. Bosh gapda: “... *sen zamonga boq*”.

sen – ega, zamonga – to‘ldiruvchi, boq – kesim.

Yoki quyidagi lisoniy namunada ham xiazm usulidagi holatni ko‘rishimiz mumkin:

Vafosizda hayo yo‘q (To‘ldiruvchi + ega + kesim)

Hayosizda vafo yo‘q. (To‘ldiruvchi + ega + kesim).

Yuqoridagi kabi misollar tahlili ko‘rsatadiki, birinchi gapning bo‘laklari ikkinchi gapda o‘z vazifasini o‘zgartirgan holda takroran qo‘llangan.

Xiazm hodisasi shunisi bilan xarakterliki, u nutqiy ifodaning shaklan qarama-qarshi bo‘lgan ikkinchi qismiga urg‘u berish uchun xizmat qiladi. Bu figura shaklan almashinish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Yana shuni ta‘kidlab o‘tishimiz kerakki, nutqda xiazm usulining ikkala qismi o‘rtasida yengil bir to‘xtalish (pauza) qo‘yilishi talab etiladi. Ana shu pauza qo‘yilgandagina o‘quvchi yoki tinglovchining asosiy diqqat-e’tibori bunday ifodaning ikkinchi qismiga qaratiladi. Xiazm usulining effektivligi ham, asosan, shu bilan bog‘liq:

Odam ishdan chiqmaydi, odamdan ish chiqadi. (maqol)

Yuqoridagi misollardan ayon bo‘lib turganidek, xiazm usuli faqat ketma-ket keluvchi ikki yoki bir gap bo‘lagining bir xil darajadagi qismlari mavjud bo‘lsagina yuzaga chiqadi. Qismlarning bunday tartibda joylashuvi ushbu poetik vositani harakterlovchi, belgilovchi asosiy omildir.

MUHOKAMA

O‘zbek tilida xiazm usuliga xos strukturaviy dizaynning xilma-xil ko‘rinishlari mavjud. Yuqorida berilgan misol uning qo‘shma gap doirasidagi ko‘rinishidir. Yana bir misolni olib ko‘rishimiz mumkin:

Uzun tunlar bunchalar maxzun

Maxzun tunlar bunchalar uzun... (Iqbol Mirzo)

Bu qo‘shma gap tarkibidagi birinchi gapda “uzun” so‘zi aniqlovchi, “maxzun” so‘zi ot kesim vazifasini bajaradi. Ikkinchi gapda esa, aksincha “maxzun” so‘zi aniqlovchi, “uzun” so‘zi esa ot kesim vazifasida kelgan.

Yuqoridagi qo‘shma gapda aniqlovchi va ot kesim vazifalarini bajaruvchi so‘zlar ikki soda gap doirasida o‘zaro vazifasi jihatidan almashgan holda qo‘llaniladi.

Xiazm usulining aksariyat ko‘rinishlari, avval ta’kidlanganidek, shakllarda namoyon bo‘ladi. Lekin o‘zbek poetik nutqida bundan boshqa shakllar ham mavjuddir.

Funksional almashinuvning yuqoridagi kabi ko‘rinishlari, asosan ikki soda yoyiq gapni o‘z ichiga olgan qo‘shma gap tarkibi ikki soda yig‘iq gapdan iborat bo‘lsa (ega+kesim), gap bo‘laklari orasidagi funksional almashinuv boshqacharoq tarzda ro‘y beradi:

Adolat kuchlim kuch adolatli bo‘lishi kerak. (hikmatli ibora)

Bilim – kuchda, kuch – bilimda. (maqol)

Sodda yoyiq gaplarda esa xiazm usulining yana ham boshqacharoq ko‘rinishlarini uhcratish mumkin:

Haqni nohaq etma, nohaqni haq etma. (maqol)

Ushbu keltirilgan misolda, yuqoridagi holatdan farqli o‘laroq, to‘ldiruvchi kesim bilan o‘rin almashadi. Bunday o‘rin almashinish gapning mazmuniga katta ta’sir ko‘rsatadi. Buning natijasida harakat obyekti ham o‘zgaradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, xiazm ko‘proq leksik vosita sifatida emas, balki sintaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Demak, bu vosita uni tashkil qiluvchi komponentlarning o‘rin almashinuvidan hosil bo‘ladi. Shuning uchun ham bu vosita ko‘proq sintaktik vositalar sirasiga kiritilgani ma’qul. Lekin bu vositaning leksik jihatdan ham ahamiyatga ega ekanligini unutmaslik zarur.

XULOSA Ko‘rinadiki, xiazm usuli strukturaviy dizayni jihatidan juda xilma-xildir. Xiazm ko‘rinishini yuzaga chiqaruvchi ifodaning birinchi qismida ma’lum bir vazifani bajargan so‘zning ikkinchi qismida boshqa bir funktsiya bajaruvchi so‘z bilan o‘rin almashinishi sodir etiladi. Yuqorida bayon qilingan fikrlarga asoslangan holda, xiazm ko‘rinishini til ifoda vositalariga ko‘ra, ikki turga, leksik va sintaktik, ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq. Sintaktik xiazm usuli yuzaga chiqqanda, leksik xiazmdan farqli o‘laroq, birinchi komponentda ifodalangan fikr yo‘nalishi ikkinchi komponentda qarama-qarshi tomonga o‘zgarmaydi, balki ikkinchi komponentda bu yo‘nalish mantiqan to‘ldiriladi, kengaytiriladi. Xiazm usuli sintaktik jihatdan bir xil shakllangan ikki component doirasida yuzaga chiqsagina, uning effektivligi to‘la taminlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдурахмонов Ф. (1994). Ёзма нутк услубини яратувчи воситалар. Ўзбек тили ва адабиёти, 3-сон, 23-22 бб.
2. Квятковский А.К. (1966) Поэтический словарь. – М., 1966, с.325.
3. Курбонов Т.И. (1987). Публицистический стиль сов.узб.лит.языка. Автореф. дисс.канд.наук.- Т., с. 17.
4. Мирзаев И.К. (1992). Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии). Автореф.дисс.д-ра филол.наук.-Т., 1992, с. 37.